# SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020- yil yanvar-avgust oylari uchun dastlabki ma`lumot)

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)**

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.

2020- yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 900,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 235,2 mln. AQSh dollariga yoki 20,7 % ga kamaydi.




*Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko`rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o`rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o`rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o`z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo`yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o`rtasida o`tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSA da eksport hajmi 192,8 mln. AQSh dollariga (17,8 % ga kamaydi) va import hajmi 707,8 mln. AQSh dollariga (21,5 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida - 515,0 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**SAMARQAND VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO`LGAN DAVLATLAR (2020- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

| Top-10 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | 190,0 | 15,2 | 174,9 | 21,1 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | 143,1 | 37,2 | 106,0 | 15,9 |
| **Qozog`iston** | 91,3 | 29,8 | 61,5 | 10,1 |
| **Turkiya** | 84,2 | 18,4 | 65,8 | 9,4 |
| **Yaponiya** | 44,3 | 0,1 | 44,1 | 4,9 |
| **Germaniya** | 23,5 | 1.0 | 22,6 | 2,6 |
| **Sloveniya** | 21,4 | 0,0 | 21,4 | 2,4 |
| **Tojikiston** | 20,4 | 19,3 | 1,1 | 2,3 |
| **Ukraina** | 19,9 | 3,7 | 16,2 | 2,2 |
| **Latviya** | 18,9 | 0,7 | 18,2 | 2,1 |

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Samarqand, jahonning 79 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (21,1 %), Rossiya Federatsiyasida (15,9 %), Qozog`istonda (10,1 %), Turkiyada (9,4 %), Yaponiyada (4,9 %), Germaniyada (2,6 %) va Sloveniyada (2,4 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Tojikiston va Qirg`iz Respublikalari bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Tojikiston, Qirg`iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya, Turkiya va Yaponiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 30 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Tojikiston (18,1 mln. AQSh dollari), Qirg`iz Respublikasi (11,8 mln. AQSh dollari), Afg`oniston (9,0 mln. AQSh dollari), Ozarbayjon (6,5 mln. AQSh dollari), Singapur (4,8 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 25 ta yirik hamkor-davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**SAMARQAND VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **145,5** | **227,7** | **190,0** |
| Eksport | 8,5 | 18,4 | 15,2 |
| Import | 137,0 | 209,3 | 174,9 |
| Saldo | -128,6 | -191,0 | -159,7 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **150,3** | **190,1** | **143,1** |
| Eksport | 42,6 | 63,0 | 37,2 |
| Import | 107,6 | 127,1 | 106,0 |
| Saldo | -65,0 | -64,1 | -68,8 |
| **Qozog`iston** | **103,0** | **123,9** | **91,3** |
| Eksport | 23,4 | 25,9 | 29,8 |
| Import | 79,6 | 98,0 | 61,5 |
| Saldo | -56,2 | -72,0 | -31,7 |
| **Turkiya** | **103,0** | **124,1** | **84,2** |
| Eksport | 14,1 | 21,2 | 18,4 |
| Import | 88,9 | 102,9 | 65,8 |
| Saldo | -74,8 | -81,7 | -47,4 |
| **Yaponiya** | **49,8** | **49,5** | **44,3** |
| Eksport | - | 2,2 | 0,1 |
| Import | 49,8 | 47,3 | 44,1 |
| Saldo | -49,8 | -45,2 | -44,0 |
| **Germaniya** | **70,6** | **68,7** | **23,5** |
| Eksport | 1,1 | 1,8 | 1,0 |
| Import | 69,5 | 66,9 | 22,6 |
| Saldo | -68,4 | -65,1 | -21,6 |
| **Sloveniya** | **16,8** | **7,8** | **21,4** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | 16,8 | 7,8 | 21,4 |
| Saldo | -16,8 | -7,8 | -21,4 |

**SAMARQAND VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|---|---|---|
| **Tojikiston** | **6,0** | **11,0** | **20,4** |
| Eksport | 5,5 | 9,4 | 19,3 |
| Import | 0,5 | 1,6 | 1,1 |
| Saldo | 5,0 | 7,9 | 18,1 |
| **Ukraina** | **16,4** | **21,1** | **19,9** |
| Eksport | 3,0 | 9,2 | 3,7 |
| Import | 13,4 | 11,9 | 16,2 |
| Saldo | -10,5 | -2,6 | -12,5 |
| **Latviya** | **26,0** | **32,0** | **18,9** |
| Eksport | 1,6 | 1,2 | 0,7 |
| Import | 24,4 | 30,8 | 18,2 |
| Saldo | -22,8 | -29,6 | -17,4 |
| **Litva** | **9,1** | **13,2** | **17,1** |
| Eksport | 0,2 | 1,2 | 1,5 |
| Import | 8,9 | 11,9 | 15,6 |
| Saldo | -8,7 | -10,7 | -14,0 |
| **Vengriya** | **7,3** | **8,4** | **15,5** |
| Eksport | - | 0,2 | 0,1 |
| Import | 7,3 | 8,3 | 15,4 |
| Saldo | -7,3 | -8,1 | -15,2 |
| **Respublika Koreya** | **12,5** | **27,2** | **15,3** |
| Eksport | 0,9 | 0,8 | 0,2 |
| Import | 11,6 | 26,3 | 15,1 |
| Saldo | -10,7 | -25,5 | -14,8 |
| **Qirg'iz Respublikasi** | **6,2** | **7,7** | **14,5** |
| Eksport | 5,9 | 6,9 | 13,1 |
| Import | 0,3 | 0,8 | 1,4 |
| Saldo | 5,6 | 6,1 | 11,8 |

Mamlakatimizda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-avgust oylarida, viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 35,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2018-yilga nisbatan ulushi 3,9 % ga oshgan.

**SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLAN-MASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAV-LATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**




Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi ham 2020- yil yanvar-avgust oylarida 2019- yilning shu davriga nisbatan kamaydi (22,9 % ga) va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 64,4 % ni tashkil etdi.

# SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI
# (2020- yil yanvar-avgust)

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning eksportyorlari soni 472 tani tashkil etib, ular tomonidan 192,8 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan 17,8 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 96 % ni tashkil etib, ular asosan oziq-ovqat mahsulotlari va trik hayvonlar (43,4 %), material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (21,3 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (10,0 %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

XSST BO`YICHA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-avgust)

| XSST tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar |
| **Jami eksport** | **192,8** | **118,3** | **74,6** | **100** | **100** | **100** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 83,8 | 51,9 | 31,9 | 43,4 | 43,9 | 42,8 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,8 | 0,7 | 0,1 | 0,4 | 0,6 | 0,1 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 10,4 | 4,3 | 6,0 | 5,4 | 3,7 | 8,1 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 6,0 | 2,6 | 3,4 | 3,1 | 2,2 | 4,6 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 2,7 | 2,3 | 0,4 | 1,4 | 1,9 | 0,6 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 41,1 | 18,5 | 22,8 | 21,3 | 15,7 | 30,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 19,3 | 16,7 | 2,6 | 10,0 | 14,2 | 3,5 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 20,9 | 17,7 | 3,2 | 10,8 | 15,0 | 4,3 |
| Xizmatlar | 7,8 | 3,4 | 4,3 | 4,0 | 2,9 | 5,8 |

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O`SISH SUR`ATLARI (2020- yil yanvar-avgust)

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar xissasiga to`g`ri kelmoqda.

| XSST tarkibi | 2019- yilning yanvar-avgustiga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **82,2** | **91,0** | **71,3** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 70,0 | 81,3 | 57,0 |
| Ichimliklar va tamaki | 54,9 | 50,9 | 192,8 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 54,0 | 65,3 | 48,1 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 99,4 m. | - | 56,0 m. |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 199,7 | 284,6 | 78,3 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 129,4 | 97,9 | 175,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 113,4 | 151,9 | 43,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 107,4 | 101,9 | 152,7 |
| Xizmatlar | 40,4 | 43,6 | 38,2 |

**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI (yanvar-avgust, % da)**

2020- yil yanvar-avgust oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2019- yilning yanvar-avgustiga nisbatan, mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar, ichimliklar va tamaki, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o`sish kuzatildi.

| XSST tarkibi | 2018- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 43,8 | 51,0 | 43,4 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,9 | 0,6 | 0,4 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 6.9 | 8.2 | 5.4 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 0,0 | 2,2 | 0,0 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 0,0 | 0,0 | 3,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 1,1 | 0,6 | 1,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 17,3 | 13,5 | 21,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 8,7 | 7,3 | 10,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 9,6 | 8,3 | 10,8 |
| Xizmatlar | 11,8 | 8,2 | 4,0 |

## XSST BO`LIMI BO`YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020- yil yanvar-avgust)

| XSST bo`limi nomi | Mln. AQSh dollari | 2019- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Sabzavotlar va mevalar | 64,7 | 58,5 |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 10,0 | 2,3 m. |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari | 3,0 | 138,4 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 2,0 | 2,1 m. |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 1,8 | 97,5 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | 0,8 | 53,7 |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari | 0,01 | 3,2 m. |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari** | | |
| To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 8,0 | 56,4 |
| Moy olinadigan urug`lar va mevalar | 1,3 | 44,3 |
| Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 0,5 | 26,1 |
| **Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar** | | |
| O`simlik moylari va yog`lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan) | 6,0 | 99,4 m. |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar** | | |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 1,2 | 11,0 m. |
| O'g'itlar | 0,2 | 35,0 |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 0,1 | 10,9 m. |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 0,8 | 146,6 m. |

**XSST BO`LIMI BO`YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020- yil yanvar-avgust)**

| | | |
|---|---|---|
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar | 32,4 | 141,4 |
| Metalldan tayyorlangan buyumlar | 4,3 | 114,4 |
| Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan maxsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 2,8 | 122,9 |
| Rangli metallar | 1,0 | 45,2 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar | 17,9 | 119,5 |
| Energiya generatori mashinalari va asbob uskunalar | 0,5 | 2,2 m. |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | 0,5 | 25,8 |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar Metallarni qayta ishlash mashinalari | 0,3 | 162,2 |
| Sanoat uchun maxsus bo`lmagan mashinalar va ularning detallari | 0,2 | 82,2 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 13,9 | 84,4 |
| Poyabzal | 5,2 | 2,1 m. |
| Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va maxkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan | 1,3 | 13,9 m. |
| Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 0,3 | 107,9 |
| **Xizmatlar** | | |
| Transport xizmatlari | 3,0 | 37,8 |
| Qurilish xizmatlari | 2,8 | - |
| Moliyaviy xizmatlari | 1,2 | 63,8 |

So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018- yil yanvar-avgustdagi 52,2 % dan 2020-yil yanvar-avgustida 61,3 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 38,7 % ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)




2020- yilning yanvar-avgust oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 19,3 %), Qozog`iston (15,4 %), Tojikiston (10,0 %), Turkiya (9,6 %), Xitoy Xalq Respublikasi (7,9 %), Qirg`iz Respublikasi (6,8 %) va Afg`oniston (4,7 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 73,7 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadam bo`lib kelmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha geografiyasi 2019- yilning mos davriga nisbatan 64 davlatdan 60 davlatga kamaydi.

VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020- yil yanvar-avgust, % da)




SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O`SISH SUR`ATLARI (yanvar-avgust)

| Davlatlar | Mln.AQSH dollari | | O'zgarish sur'ati, % da | | O'rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- y. | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. |
| Rossiya Federatsiyasi | 63,0 | 37,2 | 147,7 | 59,0 | 1 | 1 |
| Qozog`iston | 25,9 | 29,8 | 110,8 | 114,8 | 2 | 2 |
| Tojikiston | 9,4 | 19,3 | 170,8 | 2 m. | 8 | 3 |
| Turkiya | 21.2 | 18,4 | 150,3 | 87,1 | 3 | 4 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 18,4 | 15,2 | 2.2 m. | 82,5 | 4 | 5 |
| Qirg`iz Respublikasi | 6,9 | 13,1 | 117,9 | 189,7 | 10 | 6 |
| Afg`oniston | 11,7 | 9,1 | 69,0 | 77,5 | 6 | 7 |
| Ozarbayjon | 6,9 | 7,0 | 167,5 | 101,9 | 11 | 8 |
| Singapur | 1,6 | 5,2 | 35,9 | 3,1 m. | 21 | 9 |
| Belarus Respublikasi | 4,9 | 4,8 | 134,0 | 96,1 | 12 | 10 |
| Ukraina | 9,2 | 3,7 | 3,1 m. | 39,8 | 9 | 11 |
| Iroq | 4,6 | 3,4 | 2,2 m. | 74,8 | 13 | 13 |
| Misr | 0,0 | 3,2 | - | - | 66 | 14 |
| Turkmaniston | 3,1 | 3,1 | 4 m. | 99,4 | 14 | 15 |
| BAA | 2,1 | 2,4 | 69,9 | 112,9 | 17 | 16 |
| Gruziya | 1,6 | 2,2 | 107,7 | 142,7 | 22 | 17 |
| AQSH | 1,7 | 1,8 | 114,1 | 109,5 | 20 | 18 |
| Litva | 1,2 | 1,5 | 7,3 m. | 122,4 | 24 | 19 |
| Eron | 12,9 | 1,3 | 2,1 m. | 10,0 | 5 | 20 |
| Polsha | 2,5 | 1,1 | 5,6 m. | 46,1 | 15 | - |

**VILOYATNING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollarida)**

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

| XSST tarkibi | Rossiya Federatsiyasi | | Qozog`iston | | Tojikiston | | Turkiya | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- y. | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. |
| **Jami eksport** | **63,0** | **37,2** | **25,9** | **29,8** | **9,4** | **19,3** | **21,2** | **18,4** |
| shu jumladan: | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 31,1 | 16,9 | 9,3 | 10,0 | 5,6 | 12,9 | 13,3 | 6,6 |
| Ichimliklar va tamaki | 1,0 | 0,4 | 0,2 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 2,8 | 2,0 | 1,9 | 1,3 | 0,1 | 0,1 | 0,2 | 0,3 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 2,1 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,9 | 0,0 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 1,8 | 0,0 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 0,0 | 0,0 | 0,4 | 0,8 | 0,3 | 0,7 | 0,0 | 0,0 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 3,2 | 3,3 | 3,8 | 3,6 | 1,5 | 1,9 | 5,2 | 9,2 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,6 | 0,2 | 8,9 | 11,9 | 1,1 | 0,7 | 0,6 | 1,8 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 14,5 | 11,2 | 1,4 | 2,1 | 0,7 | 1,2 | 0,0 | 0,3 |
| Xizmatlar | 7,8 | 3,4 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 1,0 | 0,4 |

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOT-LARI EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 62,4 mln. dollar qiymatli 88,5 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019- yilning mos davriga nisbatan 33,0 mln. AQSh dollariga pastlashish kuzatilib, 34,6 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 20,2 mln. AQSh dollariga teng 31,5 ming tonna sabzavot, shuningdek, 19,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi 22,9 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 32,4 % ni tashkil etdi.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOT-LARI EKSPORTI (2020- yil yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)**




Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (17,7 %), Xitoy xalq Respublikasi (10,6 %), Qozog`iston (22,1 %) va Turkiya (5,0 %) davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

## MEVA - SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (yanvar-avgust)

| Davlatlar | 2019- yil | | | 2020- yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da |
| Rossiya Federatsiyasi | 20,2 | 16,5 | 13,0 | 15,7 | 14,3 | 17,7 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 14,8 | 13,4 | 9,5 | 9,4 | 8,2 | 10,6 |
| Qozog'iston | 23,5 | 9,2 | 15,1 | 19,5 | 8,4 | 22,1 |
| Turkiya | 29,7 | 12,8 | 19,1 | 4,4 | 5,7 | 5,0 |
| Belarus Respublikasi | 4,8 | 4,2 | 3,1 | 4,6 | 4,4 | 5,2 |
| Ukraina | 11,1 | 8,1 | 7,2 | 3,8 | 2,9 | 4,3 |
| Iroq | 8,7 | 3,6 | 5,6 | 11,1 | 2,6 | 12,5 |
| Ozarbayjon | 2,2 | 2,3 | 1,4 | 1,6 | 1,9 | 1,8 |
| Gruziya | 5,4 | 1,5 | 3,5 | 2,5 | 2,0 | 2,8 |
| Turkmaniston | 10,4 | 2,3 | 6,7 | 6,7 | 1,9 | 7,6 |
| AQSH | 0,5 | 1,3 | 0,3 | 0,5 | 1,5 | 0,6 |
| Eron | 7,1 | 5,3 | 4,6 | 1,2 | 0,8 | 1,4 |
| BAA | 1,1 | 1,0 | 0,7 | 0,6 | 1,0 | 0,7 |
| Germaniya | 0,5 | 1,6 | 0,3 | 0,2 | 0,9 | 0,2 |
| Latviya | 1,5 | 1,2 | 1,0 | 0,8 | 0,7 | 0,9 |
| Litva | 1,5 | 1,1 | 1,0 | 0,6 | 0,7 | 0,7 |
| Boshqa davlatlar | 10,2 | 10,0 | 7,9 | 4,5 | 3,4 | 6,0 |

**-qiymat ifodasidan*

TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To`qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o`rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo`shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko`rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 50,1 mln. AQSh dollarlik to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 26,0 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan 13,3 % ga o`sdi.

Eksport qilingan to`qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (22,6 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (26,3 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 113 turdagi to`qimachilik mahsulotlari dunyoning 23 ta davlatiga eksport qilindi.

TO`QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)

| Tovar nomi | 2018- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|---|---|---|
| Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari | 14,5 | 16,4 | 13,2 |
| Gilamlar | 18,0 | 17,4 | 14,0 |
| Paxtadan yigirilgan ip | 2,6 | 3,3 | 11,3 |
| Ipak va ipak mahsulotlari | 0,2 | 0,0 | 3,4 |
| Paxtadan gazlamalar | 3,5 | 5,7 | 5,4 |
| Boshqa to`qimachilik mahsulotlari | 0,7 | 1,4 | 2,8 |

Mamlakatimizning to`qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag`batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To`qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (13,5 mln. AQSh dollari – 26,9 %), Turkiya (9,3 mln. AQSh dollari – 18,6 %) va Qirg'iz Respublikasi (6,1 mln. AQSh dollari – 12,2 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

**DAVLATLAR KESIMIDA TO`QIMACHI-LIK MAHSULOT-LARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|---|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 15,7 | 17,6 | 13,5 |
| Turkiya | 2,4 | 3,3 | 9,3 |
| Qirg`iz Respublikasi | 4,6 | 5,0 | 6,1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 1,8 | 3,6 | 6,0 |
| Ozarbayjon | 2,1 | 3,6 | 3,6 |
| Misr | 0,0 | 0,0 | 3,2 |
| Qozog'iston | 3,6 | 2,4 | 2,3 |
| Afg'oniston | 3,9 | 2,9 | 1,8 |
| Polsha | 0,3 | 1,4 | 0,8 |
| Izroil | 0,3 | 0,3 | 0,6 |
| Vetnam | 0,0 | 0,0 | 0,5 |
| Tojikiston | 1,0 | 0,5 | 0,4 |
| Eron | 1,8 | 2,1 | 0,4 |
| Singapur | 0,0 | 0,0 | 0,3 |
| Ukraina | 0,2 | 0,3 | 0,3 |
| BAA | 0,4 | 0,7 | 0,2 |
| Belarus Respublikasi | 0,1 | 0,0 | 0,2 |
| Turkmaniston | 0,0 | 0,2 | 0,2 |
| AQSH | 0,4 | 0,0 | 0,1 |
| Moldova | 0,0 | 0,0 | 0,1 |

# SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI
(2020- yil yanvar-avgust)

2020- yil yanvar-avgust oylarida import hajmi 707,8 mln. AQSh dollarini va 2019- yilning mos davriga nisbatan 78,5 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (35,9 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (18,9 %) hamda kimyoviy vositalar (32,4 %) hisobiga to`g`ri keldi.

XSST BO`LIMI BO`YICHA IMPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)




Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-avgustida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 193,4 mln. AQSh dollariga kamaydi va 707,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1,9 mln. AQSh dollariga yetdi.

| | Mln. AQSh dollari | Umumiy hajmga |
|---|---|---|

| XSST tarkibi | | | | nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami import** | **707,8** | **202,2** | **505,7** | **100** | **100** | **100** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 55,2 | 36,4 | 18,8 | 7,8 | 18,0 | 3,7 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 31,4 | 20,5 | 11,0 | 4,4 | 10,1 | 2,2 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 13,5 | 13,3 | 0,3 | 1,9 | 6,6 | 0,1 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 9,0 | 8,4 | 0,6 | 1,3 | 4,2 | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 195,2 | 45,2 | 150,0 | 27,6 | 22,4 | 29,7 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 133,6 | 61,3 | 72,3 | 18,9 | 30,3 | 14,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 242,6 | 14,0 | 228,6 | 34,3 | 6,9 | 45,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 25,4 | 3,0 | 22,4 | 3,6 | 1,5 | 4,4 |
| Xizmatlar | 1,9 | 0,1 | 1,8 | 0,3 | 0,0 | 0,4 |

Importning eng katta ulushi, jumladan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (30,3 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (22,4 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,0 %) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (45,2 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (29,7 %) hissasiga to`g`ri keladi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O`SISH SUR'ATLARI (2020- yil yanvar-avgust)**

| XSST tarkibi | 2019- yil yanvar-avgustiga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **78,5** | **79,8** | **78,1** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 80,4 | 98,1 | 59,6 |
| Ichimliklar va tamaki | 2,9 | - | 2,9 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 56,3 | 49,2 | 77,2 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 2,1 m. | 2,2 m. | 51,1 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 103,3 | 110,0 | 55,5 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 143,6 | 135,1 | 146,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 70,0 | 72,3 | 68,1 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 60,4 | 34,6 | 63,3 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 83,5 | 133,1 | 79,5 |
| Xizmatlar | 68,6 | 3,4 m. | 66,6 |

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2018- yilning mos davriga nisbatan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar ulushi 13,9 % dan 27,6 % gacha o`sdi, ammo mashinalar va transport asbob-uskunalari 44,3 % dan 34,3 % ga, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari importining ulushi esa 7,6 % dan 4,4 % ga kamaydi.

## IMPORT TARKIBI DINAMIKASI (2020- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)

| XSST tarkibi | 2018- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|---|---|---|
| Jami | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 9,3 | 7,6 | 7,8 |
| Ichimliklar va tamaki | 1,5 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari | 7,6 | 6,2 | 4,4 |
| Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar | 0,5 | 0,7 | 1,9 |
| Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar | 2,6 | 1,0 | 1,3 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar | 13,9 | 15,1 | 27,6 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 18,1 | 21,2 | 18,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 44,3 | 44,6 | 34,3 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 1,9 | 3,4 | 3,6 |
| Xizmatlar | 0,3 | 0,3 | 0,3 |

## XSTT BO`YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2020- yil yanvar-avgust 2019- yil yanvar-avgustiga nisbatan)

| Mahsulot nomi | Mln. AQSh dollari | o'zgarish sura'tlari, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 20,5 | 104,2 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 20,1 | 79,6 |
| Sabzavotlar va mevalar | 3,1 | 69,8 |
| Trik hayvonlar | 4,1 | 74,4 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 1,6 | 20,9 |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari** | | |
| Moy olinadigan urug`lar va mevalar | 8,5 | 37,1 |
| Probka va yog`och-taxtalar | 10,7 | 109,3 |
| Hayvonlar va o`simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 5,1 | 49,4 |
| Tabiiy kauchuk | 3,9 | 178,9 |
| O`g`itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo | 1,7 | 18,8 |
| **Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar | 13,2 | 2,0 m. |

**XSTT BO`YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2020- yil yanvar-avgust 2019- yil yanvar-avgustiga nisbatan)**

| | | |
|---|---|---|
| Ko`mir, koks va briketlar | 0,4 | 2,4 m. |
| **Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar** | **Mln. AQSh dollari** | **o'zgarish sura'tlari, % da** |
| O`simlik moylari va yog`lari | 8,5 | 105,5 |
| Hayvon va o`simlik moylari va yog`lari | 0,5 | 74,7 |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar** | | |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 141,9 | 186,7 |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 26,3 | 87,8 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 10,4 | 101,8 |
| Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar | 4,6 | 92,3 |
| Organik kimyo moddalari | 3,8 | 78,2 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| Cho`yan va po`lat | 66,7 | 68,6 |
| To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar | 24,7 | 89,9 |
| Rezina buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 16,8 | 60,8 |
| Metalldan tayyorlangan buyumlar | 9,2 | 84,0 |
| Ruda bo`lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 5,1 | 55,0 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar | 95,7 | 58,1 |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo`ljallangan mashinalar | 72,2 | 51,2 |
| Sanoat uchun maxsus bo`lmagan mashinalar va ularning detallari | 54,0 | 84,8 |
| Metallarni qayta ishlash mashinalari | 7,2 | 46,5 |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | 8,7 | 73,7 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Blokli binolar, suv o`tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 13,3 | 69,1 |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 5,4 | 153,3 |
| Har xil tayyor buyumlar | 3,9 | 110,5 |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o`xshash mahsulotlar | 1,3 | 159,7 |
| Poyabzal | 1,0 | 84,2 |
| **Xizmatlar** | | |
| Transport xizmatlari | 1,8 | 147,4 |

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining kamayishiga donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (20,4 % ga), tirik hayvonlar (25,6 % ga) hamda meva-sabzavot mahsulotlari (30,2 % ga) importining kamayishi ta`sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar importi kamayishiga esa, birlamchi shakldagi plastmassalar (12,2 % ga) hamda organik kimyo moddalari (21,8 % ga) importining kamayganligi bevosita ta`sir etgan.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari, ulushi % da)**




Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 24,7 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (9,7 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.

## TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR (yanvar-avgust)

| Davlatlar | Mln. AQSH dollari | | O`sish sur`ati, % da | | O`rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- y. | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 209,3 | 174,9 | 152,8 | 83,5 | 1 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 127,1 | 106,0 | 118,1 | 83,4 | 2 | 2 |
| Turkiya | 102,9 | 65,8 | 115,7 | 64,0 | 3 | 3 |
| Qozog`iston | 98,0 | 61,5 | 123,1 | 62,8 | 4 | 4 |
| Yaponiya | 47,3 | 44,1 | 95,1 | 93,2 | 6 | 5 |
| Germaniya | 66,9 | 22,6 | 96,3 | 33,7 | 5 | 6 |
| Sloveniya | 7,8 | 21,4 | 46,6 | 273,4 | 20 | 7 |
| Latviya | 30,8 | 18,2 | 126,4 | 59,0 | 7 | 8 |
| Ukraina | 11,9 | 16,2 | 88,4 | 136,7 | 12 | 9 |
| Litva | 11,9 | 15,6 | 134,4 | 130,2 | 11 | 10 |
| Vengriya | 8,3 | 15,4 | 112,6 | 186,1 | 17 | 11 |
| Koreya Respublikasi | 26,3 | 15,1 | 227,1 | 57,2 | 8 | 12 |
| Hindiston | 14,8 | 12,7 | 83,3 | 85,6 | 9 | 13 |
| Eron | 13,9 | 10,5 | 214,1 | 75,7 | 10 | 14 |
| Gruziya | 3,0 | 10,4 | 135,4 | 343,9 | 26 | 15 |
| Polsha | 10,3 | 10,4 | 131,8 | 101,1 | 14 | 16 |
| Niderlandiya | 9,6 | 8,6 | 64,1 | 89,4 | 15 | 17 |
| Turkmaniston | 5,8 | 8,0 | 183,9 | 137,1 | 24 | 18 |
| Bangladesh | 8,1 | 6,8 | 105,2 | 83,6 | 18 | 19 |
| Belarus Respublikasi | 6,5 | 6,7 | 159,2 | 102,2 | 22 | 20 |

VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020- yil yanvar-avgust, % da)

2020- yil yanvar-avgust oylari yakuni bo'yicha Samarqand viloyati tomonidan 74 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.




Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Yaponiya, Sloveniya va Germaniya) jami importning 70,1 % ini tashkil qiladi, bu 496,2 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya va Turkiya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

QURILISH MATERIALLARI IMPORTI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSh dollari)




Qurilish materiallari importi, asosan yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, keng ko`lamdagi qurilish-rekonstruksiya ishlarini amalga oshirilishiga qaratilmoqda.

| Qurilish materiallari | 2018- y. | 2019- y. | 2020- y. |
|---|---|---|---|
| **Yog`och va yog`och mahsulotlari** | 29,1 | 20,5 | 16,6 |
| **Shisha va shisha buyumlar** | 2,0 | 1,9 | 1,9 |
| **Asbest** | 1,6 | 8,0 | 0,9 |
| **Sement** | 0,8 | 2,9 | 0,4 |

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz hamda viloyatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo`limi
Tel.:66-230-45-23**